

NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR LUG'ATINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.

Karimova Taxmina Ikromovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning umumiy tavsifnomasi berilgan. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning kelib chiqish sabablari va turlari yoritilgan. Nutqida muammolari bo'lgan bolalarga bo'lgan musobatlari, ularning xarakteri, ijtimoiy muhitga moslashishi, moslashish davomida ota-ona va o'qituvchilarning ro'li, bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish va bu asosida prezidentning qarorlari, nutqida muammolari bo'lgan bolalar bilan turli xil axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va metodikalar olib borish haqida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Nutq, dislaliya, rinolaliya, rinofoniya, disfoniya, dizartriya, alaliya, afaziya, duduqlanish, disgrafiya, agrafiya, diskleksiya, inklyuziv, adaptatsiya, metod, ijtimoiy muhit, aqliy rivojlanish, logoped.*

Annotation: *This article provides a general description of children with speech impairments. The causes and types of children with speech impairments are discussed. The challenges faced by children with speech impairments, their character, adaptation to the social environment, the role of parents and teachers during adaptation, the education of children in inclusive education and the decisions of the President on this basis, and the use of various information and communication technologies and methods with children with speech impairments are discussed.*

Keywords: *Speech, rhinolalia, dysphonia, dysarthria, aphasia, stuttering, dysgraphia, agraphia, dyslexia, inclusive, adaptation, method, social environment, mental development, speech therapist.*

Bugungi kunda nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularni o'z tengdoshlariga qo'shish maqsadida inklyuziv ta'lim joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2030-yilga qadar Respublikamizdagi barcha maktablarga inklyuziv ta'limni bosqichma bosqich joriy qilish va alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatilishi kerakligini yoritib o'tgan.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni davlat har tomondan qo'llab quvvatlagan holda ularga bilim olish va hayotini tengdoshlari qatori

o'tkazishlari uchun barcha shart sharoitlarni yaratib beradi. Masalan aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan yoki harakat tayanchida nuqsoni bo'lgan bir so'z bilan aytganda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun tibbiy ko'riklarni, dorilarni va boshqa birlamchi tibbiy yordamlarni bepul ko'rsatish kerakligi aytilgan.

Nogiron bolalar bilan ishlashda biz bolalarda o'qish va o'rganish uchun motivatsiya deyarli yo'q yoki juda past ekanligini, e'tiborni jalb qilishda qiyinchilikka uchrashini, fonetik va fonemik nutqning rivojlanmaganligini, tez charchashni, leksik va grammatik nutqning rivojlanmaganligini, gipo- yoki giperaktivlikni kuzatamiz.

Bugungi kunda ushbu muammolarni hal qilishga axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordam beradi. Rang, harakat, tovush - bu bolalar e'tiborini uzoq vaqt ushlab turadigan, o'quv jarayonini ongli qiladigan omillardir. Bundan tashqari, nutqdagi nuqsonlarni tuzatish uchun bolalarning o'zaro muomala qilish qobiliyatini, atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan faol aloqada bo'lish qobiliyatini ta'minlaydigan nutq muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Va bu ishda ham motivatsiya manbalaridan biri sifatida bizga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yordamga keladi. Kompyuter texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'lum bir o'yin vaziyatiga tushirishga, to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyatini yanada mazmunli, qiziqarli, jozibali va haqiqatan ham zamonaviy qilishga imkon beradi.

Axborot texnologiyalari so'nggi paytlarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion va rivojlantirish ishlarining istiqbolli vositasiga aylandi. Kompyuter texnologiyalari maxsus pedagogikada tobora ko'proq qo'llaniladigan eng samarali o'qitish vositalaridan biridir. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kompyuter vositalari mutaxassis uchun korreksiya ta'limi tarkibining bir qismi emas, balki bola rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatish uchun qo'shimcha imkoniyatlar to'plamini taqdim etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tuzatish va tarbiyaviy ishlar ixtisoslashtirilgan yoki moslashtirilgan kompyuter dasturlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ularni qo'llash samarasi o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasiga, yangi imkoniyatlardan foydalanish qobiliyatiga, har bir bolaning ta'lim tizimiga AKTni kiritishga, ko'proq motivatsiya va psixologik qulaylikni yaratishga, shuningdek o'quvchiga faoliyatning shakllari va vositalarini tanlash erkinligiga bog'liqdir.

Bugungi kunda logopedlar uchun turli kompyuter dasturlari va dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni qo'llash borasida ma'lum tajriba

to'langan. Bu tajriba bilan Internet orqali tanishish mumkin. Mutaxassislar zamonaviy interfaol johozlardan "Interaktiv pol", "Interaktiv qumdon", "Interaktiv ekran", "Logomer" dasturi o'rnatilgan interaktiv majmuadan foydalanishni tavsiya qilishmoqda.

"Interaktiv pol" noyob ishlanma bo'lib, video va tasvirlarni polda aks ettirish imkonini beradi. O'rgatuvchi projektsiyalar yordamida narsalarning rangini, shaklini, nomini aytadilar. Interaktiv qumdondagi o'yinlar bolaning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qum bilan o'ynab, izchil gapirishni, jumlar tuzishni o'rganadilar. "Logomer" - bu logoped va defektolog uchun dasturiy-didaktik majmuadir. Majmuada logopedik va korreksion mashg'ulotlarning asosiy mavzulari va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion darslar bo'yicha o'yinlar va mashqlar mavjud. Dasturning maqsadi rus tilidagi tovushlarni, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va izchil gapirish, mustaqil ravishda iboralar va jumalarni qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur dasturda keltirilgan mashq va o'yinlardan o'zbek tiliga moslashtirib o'zbek guruhlarida foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Nutqida muammosi bo'lgan bolalar jamiyatda qanday qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin va ularga nima sabab bo'ladi. Shu kabi savollar juda ko'pchilikni qiziqtirsa kerak, menimcha nutq kamchiligi bu yaqqol ko'zga tashlanadigan va atrofdagilarni diqqatini o'ziga tortadigan jarayon xisoblanadi. Bolalar nutqing noto'g'riligidan uyalgan holdi kam gapirishi va yaxshi o'zlashtira olmaydigan bolalar qatoriga tezda tushib qolishlariga sabab bo'ladi va ular kam gapiradigan oz fikrlarini bildirmaydigan erkin gapirmaydigan holatgacha tushib qolishlari mumkin bo'ladi. Bunday holatlarda ko'pincha atrofdagilarning munosabatlari katta axamiyatga ega bo'ladi. Atrofdagilar ularning nutqidagi kamchiliklarni ko'pchiliklar yonida aytib mazax qilishlar ularni o'zini chetga olishiga kam gapirishiga sabab bo'ladi.

Interfaol ekranni ishlatish korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni hayajonli, dinamik, rang-barang qilishiga va bolalarning fikr-mulohazalarini olishga yordam beradi. Interfaol ekran uning komplektasiyasiga kiruvchi standart dasturiy ta'minotdan va mualliflarning taqdimotlari, simulyatorlari, videofilmlari, kompyuter o'yinlari va hokazolardan foydalanish imkonini beradi.

Interaktiv uskunalaridan foydalanish bolalar charchashining oldini oladi, ularning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, umuman ish samaradorligini oshiradi. Nutqni rivojlantirish darslarida ulardan foydalanish bolalar uchun qiziq va ularning e'tiborini tortadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash uchun turli ko'rinishlari mavjud bulardan nutqida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarga maxsus grandlar qo'shimcha kvotalarning borligi va reabilitatsion dasturlarning ishlab chiqilishi mashxur kitoblar va qo'shimcha adabiyotlarning borligi shular jumlasiga kiradi.

Har qanaqa kamchilik bo'lishidan qat'iy nazar davlat jamiyat va oilasi uni doim qo'llab quvatlashi o'z ustida ishlashiga ko'maklashishi doim qo'llab quvvatlashi kerak bo'ladi. Davlat qo'llab quvvatlagani bilan uning oilasi bolalarni qo'llab quvvatlashi va qiziqishlarini inobatga olgan holda ular bn ko'proq vaqt o'tkazishlari o'z ustilarida ishlashlariga ko'mak berishlari kerak bo'ladi.

Ijobiy adaptatsiya bu insonning tashqi muhitga ijobiy moslashishi va atrofdagi narsalarni yaxshi qabul qila olishi tushuniladi. Nutqida muammolari bo'lgan bolalarda ijobiy adaptatsiya ularning tashqi muhit bilan bir qatorda psixologik tomonlari, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda boshqa tengdosh sog'lom bolalarga nisbatan ijtimoiy muhitga moslashish ancha qiyinroq kechadi. Shuning uchun ular bilan individual ishlash va turli xil metodlar orqali ijtimoiy muhitga tezroq ko'niktitish har bir pedagogning o'z vazifasi hisoblanadi. Ijobiy adaptatsiyani bir nechta usullar orqali ta'minlanlash mumkin. Masalan: birinchisi bu bolani emotsional qo'llab quvvatlash ya'ni bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va mustahkamlash maqsadida uni rag'batlantirish yoki boshqa tengdoshlari orasida erishgan yutuqlarini boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatish orqali amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda bu jarayon o'quvchini yanada tezroq va keng jamoa oldida ishonchini oshiradi. Ikkinchisi individual yondashuv ya'ni bola bilan yakka tartibda shug'ullanish. Bu yondashuv asosida bolaning o'z nuqsonlaridan kelib chiqqan holda ularga mos metodlar qo'llash orqali bajariladi. Logoped , defektolog va psixologlar bilan ishlash orqali ushbu metodlar har bir bola uchun alohida ishlab chiqiladi. Uchinchisi: ijtimoiy adaptatsiyani rivojlantirish orqali bolaning jamoadagi faoliyatini yaxshilash va guruhli o'yinlarga ko'proq jalb qilishdan iboratdir. Bu usul orqali bolada ijtimoiy ko'nikma ham rivojlanadi. To'rtinchisi: nutqiy rivojlanishga yo'naltirilgan mashqlar. Bolalarning asosiy faoliyati o'yinga asoslanganligi sababli ularning nutq faoliyatini yaxshilashga qaratilgan metodlar ham o'yin orqali amalga oshiriladi. Keyingisi oila va pedagoglarning hamkorligi hisoblanadi. Bola bilan ishlash jarayonida faqatgina pedagog tomonidan emas balki uning ota onasi tomonidan ham say harakatlar olib borilishi kerak. Shundagina bolaning uyida ham nutqiy qobiliyatni yaxshilash uchun muhit yaratiladi. Xulosa qilib aytganda

ijobiy adaptatsiya natijasida bolada o'zini jamiyatining bir bo'lagi sifatida his qila boshlaydi. Bu esa o'z navbatida boladagi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishdagi ijobiy tomonlarini yanada yuksaltiradi.

Dunyo miqyosida ham statistik ma'lumotga ko'ra, nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo'lib qolgan. Bizning mamlakatimizda nutq kamchilligiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiligini erta aniqlash, korreksion ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va ta'lim -tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqlarga erishilgan. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilmaxilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o'z xulq-atvorni va o'zining mavqeyini anglash lozim. O'zaro rag'batlantirish, o'zaro hurmat, tartibni saqlash oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir nutq kamchiligiga ega bolalarni psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy ro'l o'ynaydi. Nutqiy fikrlash so'zli ma'nolar, tushunchalar va mantiqiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

Tushuncha aql-idrok jarayonida vujudga keladi. Nutqiy fikrlash faoliyat mexanizmi sifatidagi bunday jarayonlar xususiyatiga nutqiy fikrlashning muayyan turi-umumlashgan yoki aniq xodisaviy turi to'g'ri keladi. So'z ma'nosi tizimi va nutq patologiyasi tizimlarining mana shunday o'zaro shartlangan o'zgarishi, me'yorlar kabi tafakkur va nutq birligini asosli ravishda aks ettiradi.

Nutq turlari va nuqsonlarining tasnifi (klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik). Nutq ko'plab fanlarning tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiladi va shu fanlar nuqtayi nazaridan murakkab va o'zaro moslashgan fiziologik mexanizm, akustik o'zgarishlar majmuyi, lingvistik konstruksiyalar tizimi, axborotni qabul qilish, saqlash, uzatish va ishlab chiqish jarayoni ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotni samarali, jozibali va zamonaviylashtirish imkonini beradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlanib borishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bolani o'qitish va rivojlantirishning sifat jihatdan yangi tarkibiga mos keladigan bilimni uzatishning yangi usuli deb hisoblash mumkin. Ushbu usul bolaga ravon gapirish, qiziqish bilan o'qish, yangi bilimlarni olish, ma'lumot manbalarini topish va intellektual faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi.

Nutqni rivojlantirishda an'anaviy mashg'ulotning kamchiligi tovushni bir xil leksik takrorlanishi hamda monoton harakatlar bolani tez charchatib qo'yadi. Logoped o'z mashg'ulotida kompy- 738 Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti uter taqdimoti, grafika, animatsion tasvirlardan foydalanish orqali frontal mashg'ulolarni jonlantirishi, bolani qiziqishini orttirishi, ko'zlangan maqsadga ijobiy natija orqali erishishi mumkin. Kompyuterdagi mehnat ko'nikmalarini rivojlantiruvchi dasturlar orqali bolada qo'shimcha ishni bajarishga nisbatan ishtiyoq kuchayadi, natijada bolada o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Shuningdek bola bu jarayonda qo'rquv va bezovtalikdan halos bo'ladi, mashg'ulotlarda faollashadi. Ilg'or axborot texnologiyalaridan biri bo'lgan interfaol electron doskalarning afzalligi shundaki, rasmlarning dinamik o'zgarishi fon rangi, animatsion qahramonlarning nutqi bolani diqqatini o'ziga tortadi. Bu mo'jizaviy doska zamonaviy texnologiya rivojlanishining eng yuqori cho'qqisidir. Ular oddiy markerli doskalar kabi ko'rinishga ega bo'lib, ularda yoziladigan har bir matn grafik ko'rinish, chizma kabilar kompyuter ekranlarida tez paydo bo'ladi. Interfaol electron doskalar aqliy hujum uchun ajoyib vositadir.

Foydalanilgan manba/adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. — Toshkent, 1997.
2. O‘zbekiston «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida»gi qonun. — Toshkent, 1991
4. Ayupova M. Logopediya. — T., 2011.
5. L.R. Mo‘minova. Logopediya. — T., 2006.
6. L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova. Logopediya. — T., 1993.
7. L.R. Mo‘minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. — T., 2012.